

MIRZO ULUG‘BEK VA UNING TARIXI

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o‘g‘li

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning yoshlik chog‘lari, hokimiyat tepasiga kelishi va hukmdor sifatida mamlakat hayoti uchun turli islohotlar qilgani, olim sifatida esa ilm-fandagi yutuqlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bekning tug‘ilishi, Movarounnahr taxtiga chiqishi, Mo‘g‘ulistonga yurish, Abdullatif, Ulug‘bekning o‘limi, Ulug‘bek madrasasi, rasadxona, “Ulug‘bek ziji”.

Mirzo Ulug‘bek temuriylar sulolasining eng mashhur hukmdorlaridan biri, shubhasiz. U mamlakat hukmdori sifatida harbiy yurishlar, pul islohotlari, turli qurilish va obodonchilik ishlariga bosh bo‘lishi bilan birga, atrofida to‘plangan olim-u ulamolar bilan birga ilm-fan yo‘lida tinim bilmay ijod qildi. Uning sa’y-harakatlari natijasida XV asr birinchi yarmida Samarqandda shunday ilmiy muhit vujudga keldiki, uning ta’siri natijasi bugungi kunda butun dunyoga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Ulug‘bek o‘zbek xalqi tarixida buyuk astronom va matematik, davlat arbobi sifatida iz qoldirgan. Shohruxning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasidir. Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392–1396-yillar) Iroqdagi Mardin qal’asini qamal qilish chog‘ida tug‘ilgan. [1. – B. 31–32]. Jumod ul-avval oyining o‘n to‘qqizida, yakshanba kuni, hijriy yetti yuz to‘qson oltinchi yilda, it yilida (22.03.1394), Sultoniya qal’asida Shohrux Mirzoning xotini farzandli bo‘ldi. Munajjim-u donolar yig‘ilib, tolei mavludini ehtiyot bilan ko‘rdilar. Bu xabarni eshitgan Sohibqiron xursand bo‘lib, qahr-g‘azabidan tushdi. Shukrona uchun Mardin qal’asidagilarning gunohidan kechdi. Nabirasiga Muhammad Tarag‘ay deb ism qo‘ydi. Mardin qal’asini Sulton Solihga berib, o‘zi Basra tomon yo‘l oldi. [5. – B. 165].

Amir Temur nabiralarini, xususan, Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarga qatnashtirgan. Xususan, Ulug‘bek bobosining chet el elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404-yili Konigilda o‘tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulug‘bekning) nikoh to‘ylarini o‘tkazgan. To‘yda Sohibqiron Ulug‘bekka Toshkent, Sayram, Taroz, Ashpara va Mo‘g‘ulistonda to Xitoygacha bo‘lgan hududlarni suyurg‘ol qilib berdi. Amir Temur O‘trorda vafot etgan paytda Ulug‘bek ham o‘sha yerda bo‘lgan. O‘trordan qaytgan Shohrux farzandlari Ulug‘bek va Ibrohim Sultonni

amirlar Samarqandga kiritmaydilar. Aka-ukalar Buxorodan panoh topganlar. Samarqandni Xalil Sulton egallab oldi. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug‘bekka dastlab Andixoy bilan Shibirg‘on, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Naso, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410-yilda Shohrux Movarounnahrni egallagandan keyin, uni idora etishni Turkiston bilan birga Ulug‘bekka topshirdi. Ulug‘bek yosh bo‘lganligi sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqiblari – O‘trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi viloyatlari 1410-yili bahorida Ulug‘bek va Shohruxga qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokidagi jangda Shohmalik va Ulug‘bek g‘alaba qozonganlar. Shohmalikni Shohrux Xorazmga noib qilib yuborgandan keyin Movarounnahrni boshqarish Ulug‘bek qo‘lida qoldi.

Mirzo Ulug‘bek hukmronlik davrida ikkita yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisi, 1425-yili Mo‘g‘uliston xoni Shermuhammad O‘g‘lon (1421–1425-yillar) o‘zini mustaqil xon deb e‘lon qilganda, Ulug‘bek unga qarshi qo‘shin tortib g‘alaba qozongan. 1427-yili Qipchoq xoni Baroq O‘g‘lon bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchradi. Chekingan Ulug‘bekni ta‘qib qilib, Samarqandga qadar keladi. Shohrux Xurosondan katta qo‘shin bilan keldi va xavfni bartaraf etdi. Shundan so‘ng Ulug‘bek umrining va hukmronligining so‘nggi yillarida urush harakatlarini olib bormadi.

1447 - yilda Shohrux vafot etgach, unga voris sifatida Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatif qolishi kerak edi. Shohruxning xotini Gavharshod begim Hirot taxtiga Boysung‘ur Mirzoning o‘g‘li Alouddavlani o‘tqazdi. 1448-yil bahorida Ulug‘bek va Abdullatif 90 ming qo‘shin bilan Hirotga yurish qildi. Urushda Alouddavla mag‘lub bo‘ldi. Fathnoma Abdulaziz nomidan e‘lon qilingan va Shohrux Abdullatifga meros qoldirgan Ixtiyoriddin qal‘asi va uning ichidagi boyliklar Abdulazizga berilishi ham Abdullatifning Ulug‘bekka nisbatan ochiqchasiga dushmanlikka o‘tishiga bahona bo‘ldi. Ikki o‘rtada Amudaryo sohilida qo‘shinlar safga kelganda [1. – B. 32] Samarqanddagi Abdulazizga qarshi isyon ko‘tarilgani sabab Samarqandga qaytdi. Bu paytda Abdullatif Amudaryodan o‘tdi va Termiz, G‘uzor hamda Keshni egallab Samarqand sari yurish qildi. 1449-yil oktabr oyida Damashiq qishlog‘i yonida jang bo‘ldi. Ulug‘bek yengildi. Abdullatif otasini Ka‘ba ziyoratiga yubordi. Ulug‘bek Hoji Muhammad Xusrav rahnamoligida Samarqanddan kechqurun chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay orqadan bir chopar kelib sobiq hukmdorni Ka‘batullohga kuzatish tadbirini shohona o‘tkazish va marosim tayyor bo‘lgunga qadar Ulug‘bek qo‘shni qishloqda tunab qolishi kerakligini aytdi. Qo‘shni qishloqda bir uyga tunashga majbur bo‘ldi. Shu asnoda uyning eshigi ochilib, xonaga Abbos ismli bir kishi navkari bilan kirib keldi. O‘ldirish niyati borligini bilgan Ulug‘bek turiboq uning ko‘ksiga musht tushirdi, ammo navkarlar uni ushlashdi. Ulug‘bekni bog‘lash uchun ipga chiqqan Abbos kelguncha Hoji eshikni ichidan zanjirlab oldi, chunki Ulug‘bek o‘limi oldidan so‘nggi tahoratini

qilishi kerak edi. Abbos kelib Ulug‘bekni ip bilan bog‘lab tashqariga olib chiqdi va ariq bo‘yiga cho‘klatib, fonus yorug‘ida qilichning bir zarbasi bilan boshini uzib tashladi. Bu voqea 1449-yil 27-oktabr tunida sodir bo‘lgan edi. [2. – B. 405]

Mirzo Ulug‘bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakat ravnaqini ko‘zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurtlari – maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etadi. Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417-yili boshlanib, uch yilda nihoyasiga yetkazilgan. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshladi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllandi. Bu maktabning asosiy mudarrislari Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug‘bek Xurosonning Koshon shahridan G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. Samarqandga to‘plangan olimlar soni 1417-yilga kelib 100 dan ortib ketdi. Bu olimlar turli yo‘nalishda ijod qilishardi. Lekin ular orasida astronom va matematik olimlar obro‘liroq edi. Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

1420-yilda Samarqand madrasasining ochilishi munosabati bilan uning birinchi mudarrisi etib Mavlono Shamsiddin Muhammad Xavafiy tayinlanadi. Bu madrasa ko‘plab xalqlar madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida tug‘ilgan bo‘lajak ulkan shoir Jomiy Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasida tahsil olgan. Ulug‘bek atrofiga birlashgan olimlar katta ahamiyat beradigan ilmiy yo‘nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar “Zij” deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo‘lgan. Movarounnahrda mo‘g‘ullar bosqinidan keyin “zij” yozilmagan edi. Shu sabab Ulug‘bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo‘lga qo‘yish uchun rasadxona barpo etish kerak edi. (3).

Rasadxona qurilishi uchun Ulug‘bek olimlar bilan joy tanlab, Obi Rahmat anhuri bo‘yidagi Cho‘ponota degan joy ma’qul keldi. Ertaga qurilish boshlanadi, degan kuni olimlar, sarkorlar va shahar asilzodalari – hammasi bo‘lib besh yuz chog‘li odam Cho‘ponotaga kelib tayyorgarlikni oxirgi bor ko‘zdan kechirdilar. Rasadxona o‘rni kaftdek tekislangan bo‘lib, hamma tomoni muhandislar hamda ishbilarmon ustalar tomonidan o‘lchanib, xatti nisf an-nahor ham aniqlangan ekan. Bu haqida Mavlono G‘iyosiddin Jamshid va bosh me’mor usta Ismoil axborotini eshitib Ulug‘bekning kayfiyati chog‘ bo‘ldi. So‘ng rasadxona uchun hozirlangan to‘rt tarafi to‘rt gazlik uch burchak asbobni ko‘rib quvonchiga quvonch qo‘shildi.[4. – B. 196]. Rasadxona qurilishi 1424-yildan 1429-yilga qadar davom etgan. Darhaqiqat, Ulug‘bek rasadxonasining o‘z davrida qiyosi yo‘q edi. Rasadxona silindr shaklda, uch oshyonli qilib qurildi. Aylanasi 47, balandligi esa 31 metr atrofida edi. Rasadxona qurilishiga Ulug‘bekning shaxsan o‘zi, u yo‘q paytlari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid va

Ali Qushchilar boshchilik qilishgan. Binoning sirti parchinlar bilan bezatilgan. Olimlar va xizmatchilar uchun rasadxona atrofida katta-kichik hujralar qurilgan. Rasadxonaning vayron bo'lishi 1449-yillarda Ulug'bek va o'g'li Abdullatif o'rtasidagi urushlardan keyin, Ulug'bekning o'limidan so'ng bo'lgan bo'lishi mumkin. [2. – B. 434]

Rasadxonada o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblardan iborat bo'lgan. Ularning eng asosiysi radiusi 40,2 metrli qo'shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblangan. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 metrcha balandda joylashgan. Asbob aylanasi bir gradus yoyi 701,85 mm va bir minut yoyi 11,53 mm ga to'g'ri keladi. Ushbu qurilma ko'p qirrali edi. U orqali ufqdan Quyoshning, yulduzlar balandligining va boshqa sayyoralarning holatini aniq o'lchash mumkin edi. [5. <https://uz.wikipedia.org>]

Rasadxona qoshida juda boy kutubxona ham mavjud bo'lib, unda qariyb 15 ming kitob saqlangan. Ulug'bek qalamiga mansub asarlar ko'p emas, ularning soni to'rtta. Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiy, ma'lum va mashhur asari uning "Zij"i bo'lib, bu asar "Ziji Ulug'bek", "Ziji Jadidi Ko'ragoniy" deb ham atalgan. "Zij"dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari "Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola", astronomiyaga oid "Risolayi Ulug'bek" va tarixga oid "Tarixi arba' ulus" kabilar bor. Ulug'bek "Zij"i ikki qismdan iborat bo'lib: keng muqaddima va 1018 ta sobita yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Muqaddimaning boshida Qur'ondagi yulduz va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltiriladi. [3. – B. 171–175].

Xulosa qilib aytish mumkinki, temuriylar davlati Mirzo Ulug'bek davrida bobosi Temurdek ta'sirga ega bo'lmasa-da, bu davr ilm-fan va madaniy yuksalish uchun juda katta turtki bo'lgan davr deb aytishimiz mumkin. Ulug'bek harbiy yurishlar bilan birga mamlakat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan maktab, madrasa va rasadxona qurdirib, Samarqandni butun bir ilm uyiga aylantirdi. Movarounnahr va Xurosonning turli hududlaridan kelgan olimlar birlashib shunday ilmiy meros qoldirdilarki, bu meroslar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F. Sultonov, F. Bozorboyev, O'zbekiston hukumdorlari- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashri, 2007.88b.
2. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, Vatan tarixi 1 -Toshkent: Sharq- nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010.512b.
3. J.Nulifar, Sharq allomalari ilmiy merosi-Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022.288b.

4. Б, Ахмедов, Улугбек – Тошкент: Ўзбекистон ЛКСМ Марказий кумитаси “Ёш гвардия наширёти”, 1989.256.
5. Ш.Алияздий .Зафарнома- Тошкент: Шарк наширёт- матбаа концкрнининг бош тахрияти, 1997.383b.
6. <https://uz.wikipedia.org>.

